

1-bo'lim. Ip bilan ishlash. Qurilmalar va mexanizmlar. (9 soat)

1-dars. Ip

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda ip, uni tayyorlash texnologiyasi, foydalanish usullari, ipning kelib chiqish tarixi, ipak va jun ishlab chiqarish haqida tasavvurlarni shakllantirish;
- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- o'quvchilarda estetik madaniyatni rivojlantirish;
- ip (ipak, jun) bilan ishlash orqali o'quvchilarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Salomlashish (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni tekshiradi, shuningdek, oldingi sinflarda (1-, 2-, 3-o'quv yili) o'rganilgan fan bo'yicha bilimlarni faollashtirish uchun savollar beradi.

Nazariy qism (5-7 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarga mamlakatimizda va chet ellarda ishlab chiqarilayotgan ip turlari haqida so'zlab beradi.

Ip – tolalarni pishitish yo'li bilan olingan ingichka tola. Ip yigirish qadimiy tarixga ega. Bundan 20 ming yil avval odamlar o'simlik tolalari va hayvon junidan ip olishni o'rganganlar. Ular kaftlari orasidan tolalarni o'tkazib, ularni aylantirar va shu yo'l bilan ip hosil qilganlar. Taxminan miloddan avvalgi 5 ming yillikda, ya'ni g'ildirak ixtiro qilinishidan ming yil oldin urchuq paydo bo'lgan. Dastlab bular oddiy to'g'ri tayoqchalar bo'lib, odatda, ip o'ralgan uchini mahkamlash uchun o'yiqli bilan ta'minlangan edi. Tayoqchada suyakdan yasalgan ilgaklar paydo bo'lgach, odam ipni urchuqqa to'liqlik o'ray olgan. Keyinchalik Hindistonda (2500 yil avval) o'zi yigiradigan charx paydo bo'ldi. O'rta asrlarda Leonardo da Vinchi ko'p parrakli yigiruv mashinasini ixtiro qildi. Shu paytdan boshlab ip olish jarayoni ancha tezlashdi. Zamonaviy yigiruv ishlab chiqarishi takomillashtirilgan va deyarli to'liqlik avtomatlashtirilgan. Bugungi kunda bunday korxonalar yiliga bir necha ming tonna ip ishlab chiqarmoqda.

Amaliy qism (30 daqiqa)

Darslikda bilaguzuk to'qishning ikki xil chizmasi keltirilgan. O'quvchilar o'zlari tanlagan amaliy ishni mustaqil ravishda bajaradilar, zarur bo'lganda o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

O'quvchilar o'z ishlarini o'zlari baholaydilar.

O'qituvchi keyingi darsda bajarilishi kerak bo'lgan amaliy ish bilan tanishib chiqishni va shu dars uchun zarur bo'ladigan materiallar ro'yxatini tuzishni taklif qiladi.

6-dars. Soyabon

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- loyihalash va obrazli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini shakllantirish.

Dars vazifalari:

- o'quvchilarda harakat algoritmi bo'yicha ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- “Soyabon” buyumini yasash;
- ishda intizomlilik va sabrlilikni o'stirish;
- mehnatsevarlik va qunt bilan ishlashni tarbiyalash;
- umumiy va nozik motorika ko'nikmalarini rivojlantirish va tuzatish.

Salomlashish (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni tekshiradi, shuningdek, o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni faollashtiruvchi savollar beradi.

Nazariy qism (10 daqiqa).

Soyabon – insonni yomg'ir yoki quyosh nurlaridan himoya qilish uchun mo'ljallangan buyum. Dastlabki soyabonlar yomg'irdan emas, balki quyoshdan himoyalalanish uchun yaratilgan. Soyabon miloddan avvalgi XI asrda ham mavjud bo'lgan. Aynan shu davr soyabon ixtiro qilingan vaqt hisoblanadi.

Soyabonning vatani Xitoy yoki Misr deb hisoblanadi. Har ikkala mamlakatda ham soyabon hokimiyat ramzi bo'lgan. Soyabonlardan faqat fir'avnlr, imperatorlar va saroy a'yonlari foydalanganlar. Ilgari soyabonlar juda katta bo'lgan – balandligi 1,5 metrgacha yetgan, bunday soyabonlarning

og'irligi taxminan 2 kg bo'lgan. Zamonaviy soyabonlar tugma bosilganda avtomatik ravishda ochiladi. Buning uchun soyabonlar prujinali maxsus mexanizm bilan jihozlanadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

Yana qanday yangi ma'lumotlarni bilib oldingiz?

Zamonaviy soyabonlar ilgari ixtiro qilinganlaridan qanday farq qilad?

Zamonaviy soyabon qanday ko'rinishda ekanligini eslang. Soyabon yasash uchun qanday materiallar kerak deb o'ylaysiz?

So'ngra o'quvchilar darslikning 21-sahifasidagi topshiriqni bajaradilar. O'qituvchi o'quvchilarga ikki guruhga bo'linishni taklif qiladi. Har bir jamoa "soyabon" so'zi bilan bog'liq sifatlarni iloji boricha ko'proq topishi kerak.

Amaliy qism (20 daqiqa).

O'quvchilar mustaqil ravishda namunani tahlil qiladilar, ish rejasini tuzadilar, videoni ko'rgandan so'ng yoki darslikdagi bosqichma-bosqich ko'rsatmalardan foydalangan holda topshiriqni bajaradilar. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakuniy bosqich (5 daqiqa).

O'quvchilar o'z ishlarini o'zlari baholaydilar.

O'quvchilarga mustaqil tayyorgarlik sifatida keyingi darsning parrandachilik fermasi haqidagi nazariy qismi bilan tanishib chiqish tavsiya etilad.

7-8-darslar. Parrandachilik fermasi

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- loyihalash va obrazli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini shakllantirish;
- tabiatga ehtiyotkorona munosabatni, qushlarga mehr-muhabbatni tarbiyalash, ekologik madaniyat asoslarini singdirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juftlikda ishlash qobiliyati, faol tinglash ko'nikmalari, o'z fikrini ifodalay olish, muloqot olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyati);
- ozuqa idishini tayyorlash uchun qayta ishlangan materiallardan foydalanishda ijodiy tasavvur va fantaziyaning rivojlantirish.